

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**QUVONCH EHSANULLA**

**AFG‘ONISTONDA O‘ZBEK TILINING RIVOJLANISHI  
VA DAVLAT TIZIMIDA QO‘LLANISH MUAMMOLARI  
(sotsiolingvistik aspekt)**

**10.00.01– O‘zbek tili**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Philology  
Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Quvonch Ehsanulla**

Afg‘onistonda o‘zbek tilining rivojlanishi va davlat tizimida qo‘llanish muammolari (sotsiolingvistik aspekt) ..... 3

**Quwanch Ehsanulla**

Development of the Uzbek language in Afghanistan and the problems of its use in the state system (sociolinguistic aspect) ..... 25

**Кувонч Эхсанулла**

Развитие узбекского языка в Афганистане и проблемы его использования в государственной системе (социолингвистический аспект) ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 54

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**QUVONCH EHSANULLA**

**AFG‘ONISTONDA O‘ZBEK TILINING RIVOJLANISHI  
VA DAVLAT TIZIMIDA QO‘LLANISH MUAMMOLARI  
(sotsiolingvistik aspekt)**

**10.00.01– O‘zbek tili**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil2167 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz va rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtiriladi.

**Ilmiy rahbar:**

**Jo‘raqo‘ziyev Nodirbek Imomqo‘ziyevich**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
PhD, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna**  
filologiya fanlari doktori, professori

**Muhammad Humoyun Nadim**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
PhD, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy  
pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz))

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**Sh. S. Sirojiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi  
filol.f.d., akademik

**Q.U. Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filol.f.d., professor

**S. Ashirboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida til va jamiyat munosabati, tilning ijtimoiy vazifalari, kommunikatsiya jarayonidagi o‘rni masalasi ilmiy muammo sifatida an’anaviy yondashuvlar va zamonaviy paradigmalarda o‘rganilib kelmoqda. Sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlarda tilning ijtimoiy ko‘rinishlari, davlat tili, mamlakat ichida qo‘llanadigan muloqot tili, milliy til, etnik guruhlar tili nuqtayi nazaridan tahlillar amalga oshirilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan mamlakatlardagi millatlarning ona tilini asrab qolish, uni rivojlantirish va muloqot vazifasini ta’minlash bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning asosiy masalalaridan biriga aylandi.

Dunyo tilshunosligida davlat tili, hukmron til, mafkuraning tilga ta’siri, tillarning o‘zaro aloqa-munosabati, milliy tillarni saqlab qolish va rivojlantirish, etnik guruhlar tiliga munosabat masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Mamlakat qudrati, millat taraqqiyotining til mavqeyiga ta’siri, uni rivojlantirishdagi o‘rni masalalariga ham e’tibor qaratilgan. Bugungi kunda milliy tillarning boshqa hududlarda yashovchi millat vakillari tomonidan qo‘llanish darajasi, hududiy va sotsial farqli belgilarini tahlil qilish muayyan tilning dunyo miqyosidagi o‘rni, tillar orasidagi mavqeyi, ko‘p tilli muhitda ijtimoiy muloqot vositasi sifatida saqlanib qolish va rivojlanish omillarini belgilashda ahamiyatlidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini yanada oshirish, bu tilni nafaqat respublika doirasida, balki mamlakat tashqarisida keng yoyish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. O‘zbek tiliga “davlat tili” maqomi berilgan sanani xorijiy mamlakatlardagi O‘zbekiston elchixonalarida, til markazlarida keng nishonlashga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbek tilini o‘rganish va keng yoyishga yo‘naltirilgan “O‘zbek tilining do‘stlari” klubi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”<sup>1</sup>. Shunday vaziyatda o‘zbek tilining xorijda o‘rganilishi, O‘zbekiston hududidan tashqarida istiqomat qiladigan millatdoshlarimizning ona tilini asrab-avaylashga harakat qilishlari, rivojlantirish asoslari, ijtimoiy-siyosiy mavqeyini oshirishga qaratilgan intilishlarini monografik yo‘nalishda tadqiq etish amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PF-5850-son Farmoni.

nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi:** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtidosiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida til va jamiyat munosabati, tilning ijtimoiy qiymati, tillarning shakllanishi va rivojlanishi, tillarning o'zaro munosabatiga doir izlanishlar amalga oshirilgan. O'zbek tilshunosligida sotsiologiyaviy nazariy masalalari, til va jamiyat munosabatlarining asosi yoritilgan<sup>2</sup>. Rivojlangan davlatlardagi lisoniy vaziyat tahlil qilingan<sup>3</sup>. Afg'onistondagi adabiyot tarixi, o'zbek tili, siyosiy-ijtimoiy, tarixiy kitoblarda ham o'zbek tilining holati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Afg'onistonda o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy mavqeyi haqida professor Sayyid Abdulhakim Shar'iy Juzijoniy<sup>4</sup>, doktor Sayyid Muhammad Olim Labib<sup>5</sup>, doktor Azizullo Arol<sup>6</sup>, Muhammad Olim Ko'hkan<sup>7</sup>, Sayyid Tojiddin Toshqin Bahoiy<sup>8</sup>, Muhammad Rahim Ibrohim<sup>9</sup>, Muhammad Halim Yorqin<sup>10</sup>, professor Turdiquil Maymanagiy<sup>11</sup>, Narimon Abbulloyev<sup>12</sup>, Muhammad Kozim Aminiy<sup>13</sup>, ilmiy risola yoqlagan kishilarimiz Abdulhaq Rahimiy<sup>14</sup>, Muhammad Olim Erkin<sup>15</sup>,

<sup>2</sup> Usmanova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiologiyaviy nazariy masalalari. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Universitet, 2014. – B. 87; Berdialiyev A., Turdibekov M. Sotsiologiyaviy nazariy masalalari. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – B. 134.

<sup>3</sup> Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsiologiyaviy nazariy masalalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 135.

<sup>4</sup> Shar'iy Juzijoniy, Sidiy Abdulhakim. 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi". <https://www.uzlig.com>.  
<sup>5</sup> Labib, Sidiy Muhammad, "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".  
<sup>6</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".

<sup>7</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".  
<sup>8</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".  
<sup>9</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".

<sup>10</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".  
<sup>11</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".

<sup>12</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".  
<sup>13</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".

<sup>14</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".  
<sup>15</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".

<sup>16</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".  
<sup>17</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".

<sup>18</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".  
<sup>19</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".

<sup>20</sup> Erkin, M. "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", "Afghanistan de o'zbek tili va adabiyoti tarixi", 2021. 284. "O'zbek tili va adabiyoti tarixi".

Bashir Ahmad Qardosh<sup>16</sup>, Muhammad Yosin Eldosh<sup>17</sup> hamda o'zbek tili mavzusi kiritilgan kitoblar mualliflari Husayn Rizvon<sup>18</sup>, G'ulom Muhammad G'ubor<sup>19</sup>, Abdulhay Habibiy<sup>20</sup>, Ali Ahmad Ko'hzod<sup>21</sup>, Haydar Jo'bl<sup>22</sup>, Qonunmal Muhammad Daqiq<sup>23</sup>, Zabihulloh Safo<sup>24</sup>, Husayn Rizo'iy Bog'bediy<sup>25</sup> kabi olimlarning maqolalari e'lon qilingan. Olimlar alohida, ayrim holatlarda boshqa mavzular munosabati bilan Afg'onistondagi turkiy tillar, xususan, o'zbek tili haqida sotsiologiya nuqtayi nazaridan ma'lumotlar berishgan. Afg'onistonda o'zbek tilining rivojlanishi, davlat tizimida qo'llanish muammolari monografik tadqiqot mavzusi sifatida tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi:** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Afg'onistondagi lisoniy vaziyat tarixi va tadrijiy taraqqiyotini yoritish, o'zbek tilining hozirgi ijtimoiy-siyosiy va sotsial mavqeyi, me'yoriy-huquqiy asoslari, ijtimoiy sohalaridagi qo'llanish darajasini aniqlash va rivojlantirish omillarini ilmiy asoslashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Afg'onistondagi lisoniy vaziyat tarixi, o'zbek tilining so'nggi yuz yillik siyosiy, ijtimoiy muhitidagi taraqqiyotining muhim belgilarini aniqlash; qo'llanish sohalarini tahlil qilish;

ko'p tilli lisoniy jamiyatda o'zbek tilining o'rnini, ijtimoiy hukmron mavqedagi tillar bilan o'zaro munosabati, qo'llanish darajasini ko'rsatish, o'zbek tili lisoniy hamjamiyati ko'rinishlarini tavsiflash;

ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning Afg'oniston o'zbek tiliga ta'sirini asoslash, o'zbek tilining ijtimoiy sohalarida qo'llanish xususiyatlarini tahlil qilish;

Afg'onistondagi o'zbek tilini rivojlantirish omillarini belgilash;

**Tadqiqotning obyekti** Afg'onistondagi o'zbek tilining holatini ko'rsatuvchi davriy nashrlar, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, ta'lim muassasalari, o'zbek tilining ijtimoiy-maishiy sohalarida qo'llanishiga doir ma'lumotlar, ilmiy, badiiy, ommabop manbalardan iborat.

**Tadqiqotning predmetini** Afg'onistondagi o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, ijtimoiy sohalarida qo'llanishi, o'zbek tilini rivojlantirish masalalari tashkil etadi.

<sup>16</sup> Qardosh B. A. "Taxor o'zbek shevalarining morfologik qurilishi" dissertatsiya, 2021.–B.14–16.

<sup>17</sup> Eldosh M. Y. Afg'oniston umumiy adabiyotida o'zbek adabiyotini o'qitishning ilmiy–nazariy asoslari (dissertatsiya). – Toshkent, 2020. – B. 5.

<sup>18</sup> Husain Rizwan. (2005, November 15). Pakistan and the Emergence of Islamic Militancy in Afganistan. <https://books.google.co.uz>.

<sup>19</sup> غبار، غلام محمد. افغانستان در مسیر تاریخ. جلد: اول و دوم، کابل، بنگاه انتشارات میوند. سال خورشیدی 1387. صفحات 275-280.

<sup>20</sup> حبیبی، عبدالحی. تاریخ مختصر افغانستان. کابل: انجمن تاریخ ادب و ادب افغانستان. سال خورشیدی 1349. ص. 132.

<sup>21</sup> کهزاد، علی احمد، 1330 ش، تاریخ ادبیات افغانستان، ص: 12، کتاب الکترونیکی (PDF)

<sup>22</sup> ژویل، محمدحید، 1386، تاریخ ادبیات افغانستان، کابل، بنگاه انتشارات میوند. سال خورشیدی 1389. صفحات 188-192.

<sup>23</sup> دقیق، قانونمل محمد رحیم، 1392 "قانون اساسی افغانستان" (1301-1382)، افغانستان، نشر وزارت عدلیه افغانستان. ص 433.

<sup>24</sup> دقیق، قانونمل محمد رحیم، 1392 "قانون اساسی افغانستان" (1301-1382)، افغانستان، نشر وزارت عدلیه افغانستان. ص 433.

<sup>25</sup> رضایی باغ بیدی، حسین، 1382. بلوچ، در دایره المعارف بزرگ اسلامی، جلد 2. سال خورشیدی 1382. ص. 520.

**Tadqiqotning usullari.** Ishda statistik, diaxron, sinxron metodlardan, tavsiflash, sotsiologvistik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Afg‘onistondagi lisoniy vaziyat tarixi, temuriylar davridan XX asr boshlari hamda so‘nggi Afg‘oniston Islom Respublikasi davrigacha bo‘lgan tadriji ko‘rsatilib, o‘zbek tili siyosiy, ijtimoiy taraqqiyotining muhim belgilari aniqlanib, o‘zbek tilidagi muloqotga bo‘lgan ehtiyoj, erkinlik, imkoniyat va cheklovlar bevosita lisoniy hamjamiyat vakili tomonidan dalillangan;

ko‘p tilli lisoniy jamiyatda o‘zbek tilining mavqeyi, pashtu va dari tillari bilan o‘zaro munosabati, uchinchi til sifatidagi qo‘llanish darajasi, milliy til, ona tili sifatidagi huquqiy maqomi asoslangan va o‘zbek tili lisoniy hamjamiyatining adabiy til, so‘zlashuv tili, sheva ko‘rinishlari ochib berilgan;

ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning Afg‘oniston o‘zbek tiliga ta’siri asoslangan, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, davriy nashrlar, ta’lim sohasi va maishiy hayotdagi qo‘llanish xususiyatlari isbotlangan;

Afg‘onistonda o‘zbek tilidagi milliy ta’lim tizimi takomilida, milliy kadrlar tayyorlashni uzluksiz ravishda yo‘lga qo‘yishda, O‘zbeklar nufuzi yuqori bo‘lgan regionlar davlat idoralarida o‘zbek tilida ish yuritishga erishish orqali O‘zbek tilining rivojlanish tadriji oydinlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Afg‘onistondagi lisoniy vaziyat, o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-sotsial mavqeyi, hozirga qadar saqlanib qolish darajasi tarixiy bosqichlar kesimida tizimli ravishda tahlil qilingan;

Afg‘oniston o‘zbek tili haqidagi fors, ingliz va pashtu tilida yozilgan maqolalar va kitoblar o‘rganilib, o‘zbek tiliga tarjima qilinib, tadqiqot yo‘nalishi, mohiyati yoritilgan;

o‘zbek tilining saqlanib qolishi, qo‘llanish doirasi borasidagi yutuqlar va cheklangan jihatlar, muammolar tahlilga tortilgan;

tadqiqotga jalb etilgan materiallar, ma’lumotlar o‘zbek tili taraqqiyotidagi muammolarni aniqlashga, rivojlanish omillarini belgilashga xizmat qiladi. Dissertatsiyada ko‘rsatilgan taklif va tavsiyalar, tarixiy saboqlar ishning amaliy, ilmiy qimmatini oshiradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, Afg‘oniston hududida yashovchi o‘zbek millatiga mansub ziyolilar, ijodkorlarning badiiy, ilmiy asarlaridan foydalanilgani, birlamchi manbalar tahlilga tortilgani, sotsiologvistikaning eng so‘nggi ilmiy yutuqlardan foydalanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning asoslanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi, o‘zbek tilining taraqqiyot tamoyillarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan manbalarga tayanilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lisoniy jamiyat, lisoniy vaziyat masalalarining Afg‘onistondagi o‘zbek tili taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy mavqeyi nuqtayi nazaridan tahlil qilingani, o‘zbek tilining rivoji, tarixi va kelajakda yashab qolish imkoniyatlarining ilmiy jihatdan asoslanganligi, o‘zbek tilidan foydalanuvchilarning mamlakatdan

tashqaridagi miqdori, muloqot ko‘rinishlari haqida nazariy ma’lumot berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati natijalarining o‘zbek tiliga qadriyat sifatida yondashilgani, o‘zbek tilining ijtimoiy sohalarida, ta’limda, ommaviy axborot vositalarida, davlat muassasalarida qo‘llanish darajasi tahlil etilgani; tadqiqot natijalaridan oliy ta’lim bosqichlaridagi “O‘zbek tili tarixi”, “Tilshunoslikka kirish”, “Sotsiolingvistika”, “O‘zbek tilshunosligi tarixi” fanlarida foydalanish mumkinligi, magistrant, doktorantlarning mavzuga doir ilmiy izlanishlarda tayanch manbaa vazifasini o‘tashi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Afg‘onistonda o‘zbek tilining rivojlanishi va davlat tizimida qo‘llanish muammolari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

o‘zbek tilining temuriylar davridan XX asr boshlarigacha Afg‘oniston hududidagi mavqeyi, so‘nggi bir asr davomidagi qo‘llanish ahvoli, ijtimoiy vaziyati, Afg‘oniston Respublikasidagi tillar maqomining huquqiy asoslari haqidagi xulosalardan, fors va pushtu tillari bilan qiyoslashga doir materiallardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019–2022-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10. “O‘zbek tilida neyning: me‘yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 25-oktabrdagi № 01/10-2234-son ma’lumotnomasi). Natijada ta’lim korpusi Afg‘onistondagi o‘zbek tilining mamlakat lisoniy hamjamiyatidagi o‘rni, rivoji va taraqqiyotini ko‘rsatuvchi materiallar bilan boyitilgan;

Afg‘onistondagi o‘zbek tilining so‘nggi yuz yillikdagi tarixiy taraqqiyoti, qo‘llanish muammolari, ijtimoiy-madaniy voqelik, siyosiy jarayonlar ta’siri, hozirgi rivojlanish darajasiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarda bajarilgan AM-F3-20190817. “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 5-oktabrdagi № 01/10-2235-sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyiha materiallari Afg‘onistonda o‘zbek tilining rivojlanishi va davlat tizimida qo‘llanish muammolariga oid ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan;

Afg‘onistondagi o‘zbek tilining asosiy qonunlardagi o‘rni, davlat tashkilotlaridagi va madaniy muassasalarda qo‘llanish darajasi, ko‘p tilli lisoniy jamiyatdagi mavqeyi, adabiy til, so‘zlashuv tili, sheva ko‘rinishlari haqidagi ilmiy xulosalardan 2019–2022-yillarda davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan A-OT-2019-10. “O‘zbek tilida neyning: me‘yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 25-oktabrdagi № 01/10-2234-son ma’lumotnomasi). Natijada ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tilga ta’siri haqida faktik ma’lumotlar bilan boyitilgan;

Afg‘onistondagi o‘zbek tilida milliy ta’lim tizimini yaratish, milliy kadrlar tayyorlash, o‘zbek tilining matbuot, oliy ta’lim, ta’lim, nashriyot va kitobchilik sohasidagi o‘rni haqidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020–2023-yillarda davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan AM-F3-201908172. “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 5-oktabrdagi № 01/10-2235-sonli ma’lumotnomasi). Natijada Afg‘onistondagi o‘zbek tilida milliy ta’lim tizimini yaratish, milliy kadrlar tayyorlash, o‘zbek tilining matbuot, oliy ta’lim, nashriyot va kitobchilikka oid materiallar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi:** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda va xalqaro saytlarida jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Afg‘onistonda lisoniy vaziyat tarixi va tadriji**” deb nomlangan.

§ 1.1. “*Lisoniy vaziyat*” *sotsiologiyistik*ning asosiy masalasi sifatida. Tadqiqot Afg‘oniston til vaziyatining sotsiologiyistik jihatlarini chuqur o‘rganish orqali o‘lkadagi tillarning ijtimoiy vaziyatini, ularning turkumlanishini va tillar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada to‘liqroq tasvirlashga qaratilgan. Afg‘onistonda turli tillar o‘rtasidagi ko‘p tilli muhit, shuningdek, etnik guruhlar va ularning tillari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar markaziy o‘rin tutadi.

Afg‘onistondagi lisoniy vaziyatni uch nuqtayi nazardan yoritdik:

1. Afg‘oniston xalqning etnik tarkibi va tillarining xilma-xilligi.
2. Afg‘onistondagi muloqot tillari tavsifi va tasnifi.
3. Afg‘onistondagi muloqot tillarining o‘zaro ta’siri masalasi.

Afg‘oniston hududi, aholisi, muloqot tillari haqida manbalarda ma’lumot berilgan<sup>26</sup>.

*Afg‘oniston xalqning etnik tarkibi va tillarining xilma-xilligi.* Hozirgi kunda Afg‘onistonda 34 ta viloyati bor, ushbu viloyatlar ham o‘zining maxsus 364ta tuman tuzilmasiga ega<sup>27</sup>. Afg‘onistonda turli el-uluslar, turli tillar mavjud.

---

98-113.صفحات.م.1842. و متن انگلیسی ج 98افغانان، ترجمه آصف فکرت، ص. ۱۲.  
حقیقت، معرفی 34 ولایت و 364 ولسوالی کشور و 12-11-1398. <https://www.haqiqat.se><sup>27</sup>.

Mamlakat aholisi pashtunlar, tojiklar, o'zbeklar, turkmanlar, hazoralar, aymoqlar, baluchlar, nuristonliklar, pashayilar, barohoviylar, pomiriylar va boshqa etnik guruhlardan iborat. 2016-2017-yillardagi davlat aholisining rasmiy hisob-kitobiga ko'ra pashtunlar 43.7%, tojiklar 26.4%, turkman va o'zbeklar 12.2%, hazoralar 12.12%, baluchlar 2.5% qolgan boshqa etniklar 3%dan iborat bo'lgan<sup>28</sup>.

O'lka statistika va axborot boshqarmasining so'nggi ma'lumotiga ko'ra 14 ta etnik guruh Afg'oniston Asosiy qonuniga kiritilgan, Asosiy qonunga kiritilmagan 71 ta kichik etnik guruhlar mavjud. Bu katta va kichik etniklar o'ziga xos til va shevalarga ega.

*Afg'onistondagi muloqot tillari tavsifi va tasnifi.* Zahiriddin Muhammad Bobur Kobul viloyati ta'rifida xalqning o'zaro muomala tili haqida gapirganda qabila va elat nomlarini tilga olgan: *O'n bir-o'n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo'g'uliy, hindiy, afg'oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg'oniy* (189)<sup>29</sup>.

Afg'onistonda bundan 50 yil oldin Afg'onistonda 32 ta til mavjud bo'lgan. Internet ma'lumotlariga asosan Afg'onistonda hozirgi kunda 48 ta til mavjud bo'lib, muloqot vositasi sifatida xizmat qilmoqda<sup>30</sup>.

Afg'oniston lisoniy vaziyatida quyidagi tillar muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi:

I. Hind-Yevropa tillari: (Oriyoni yo G'arbiy Eron tillari), pashtu,<sup>31</sup> fors,<sup>32</sup> kurd,<sup>33</sup> lo'r, barakiy, urmiri /urmari, paryon, zargari<sup>34</sup>.

II. Afg'onistondagi turkiy tillar: o'zbek<sup>35</sup>, qozoq, qirg'iz,<sup>36</sup> surtiy (fayo, taranjy), turkman,<sup>37</sup> ozarbayjon va qoraqalpoq tillari.

III. Pomir tillari: munjiy (yudg'o), vohiy, sirikli, ishkoshimi, sanglichi, zebok, sho'g'niy / sho'g'noniy<sup>38</sup>, ro'shoniylar<sup>39</sup>.

IV. Nuriston tillari: kalishailo / voyguli<sup>40</sup>, ashkuniy, parsuniy /vosiviriylar.

V. Dordi tillari: pashshayi<sup>41</sup>, golmi, parochi, shumshati, domli, uvarbotiy tillari.

VI. Hind-Oriyoyi tillari: tirohiy, lahindo, sindi, panjobiy, urdu, joygotiy, saroyki, gujoriy, domoriy tillari.

خالدی، دوکتور نور احمد، 24-5-2018، ترکیب قومی نفوس افغانستان، سایت آریانا افغانستان آنلاین <https://www.arianafghanistan.com><sup>28</sup>

<sup>29</sup> Бобурнома / Нашрга тайёрловчилар: П. Шамсиев, С. Мирзаев. В. Зоҳидов сўз бошиси ва таҳрири билан. – Тошкент: ФА, 1960. – Б.189; ХолмановаЗ. Бобурнома – тил қомуси. – Тошкент: Академнашр, 2021. – Б. 12.

<sup>30</sup> شفقنا انترنت صحیفه سی، 22-2-2022، زبانهای رایج افغانستان. <https://www.af.shafaqna.com>

<sup>31</sup> دایره المعارف بزرگ اسلامی، درمورد کلمه "پامیری"، 17-9-2010.

<sup>32</sup> Spooner, Brian, 2011. "10. Balochi: Towards a Biography of the Language". In Schiffman, Harold F. Language Policy and Language Conflict in Afghanistan and Its Neighbors. Brill. p. 320. ISBN 978-9004201453

<sup>33</sup> Paul Ludwig, 2008-12-15, history of the Kurdish language. [https://www.iranicaonline.org/articles/kurdish-languagei\\_Encyclopaedia\\_Iranica](https://www.iranicaonline.org/articles/kurdish-languagei_Encyclopaedia_Iranica).

<sup>34</sup> دهخدا، علی احمد، لغتنامه دهخدا.

<sup>35</sup> احمدی، محمدادریس، 16-10-1386، معلومات عمومی افغانستان، - <https://geo-of-afg.blogfa.com>

<sup>36</sup> هنریار، ارشاد، 12-11-2017، فرغیزهای افغانستان اقلیتی رویه به انقراض بریام دنیا. <https://www.bbc.com>

<sup>37</sup> دیکشنیری آبادیس، ترکمن های افغانستان. <https://abadis.ir>

<sup>38</sup> کهزاد، علی احمد. تاریخ ادبیات افغانستان. کتاب الکترونیکی (PDF). سال خورشیدی 1330. ص. 12.

<sup>39</sup> Wikipedia contributors, "Rushani dialect, "Wikipedia, The Free Encyclopedia", <https://www.en.wikipedia.org> (accessed September 12, 2012).

<sup>40</sup> راهپور طرزی، صدیق. 11-2-3-25، سرزمین ما- ارزنگ زیبایی های قومی، [www.afghanasmai.com](http://www.afghanasmai.com)

<sup>41</sup> Ethnologue report for Dardic, Ethnologue language of the Afghanistan.

Afg'onistonda boshqa tillar va shevalar ham mavjud: hindiki / hindikush, somiy, mo'g'uliy, barohuiy, siryokiy, dif, kolmiy, soviy, uyg'ur / urduchi tillari<sup>42</sup>.

Afg'onistonda ko'p sonli aholi gaplashadigan qadimgi tillardan biri pashtu tilidir. Bu til egalari Afg'onistonning janubiy, sharqiy, janubi-g'arbiy viloyatlarida yashaydilar. Bu til fors va arab tillarining ko'plab o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan va turli shevalarga ega: Vaziriy, Ofaridiy, Pishovur, Qandahoriy, G'alzoiy, Babuchiy va boshqalar<sup>43</sup>. Bugungi kunda pashtu tili Afg'oniston tili deb ham ataladi.<sup>44</sup>

**Afg'onistondagi muloqot tillarining o'zaro ta'siri masalasi.** Afg'onistondagi pashtu tilida so'zlashuvchilarning aksariyati fors tilini yaxshi biladilar, ammo ushbu tilga yaxshi munosabatda bo'lmaydilar. Pashtu tili lug'at tarkibidagi mahalliy elementlarning aksariyati Sharqiy Eroniy tillari bilan bog'liq. Biroq oz miqdordagi so'zlar pashtu tiliga xosdir. Bu til milodiy XVII asrdan keyin fors va hind tillaridan ko'p so'zlarni o'zlashtirib olgan. Arab so'zlari esa fors va urdu tillari orqali kirib kelgan. Shunisi ahamiyatliki, Afg'onistondagi muloqot tillarining o'zaro ta'siri natijasida nafaqat arabcha, hindcha birliklar kirib keldi, balki o'zbekcha so'zlar ham fors va pashtu tillariga o'zlashdi. Masalan, fors tiliga o'zlashgan *o'toq o'troq* so'zidan olinib, yashaydigan yerni anglatadi. *To'shak yo do'shak, to'shamoq* so'zidan olingan bo'lib, asosan *to'shamoq* fe'lidan yasalgan va hokazolar.<sup>45</sup> Tadqiqotchi Azizulloh Arolning maqolasida ko'rsatilishicha: "O'zbekcha so'zlarning anchasi juda sodda shakli bilan pashtu tiliga kirib borgan. Ushbu so'zlarning o'zbekcha bo'lganligini, faqatgina tilshunoslar o'qishi bilan tezlikda tushunib oladi. Hozir esa ushbu so'zlar pashtu tilida mavjud va ishlatilib kelinmoqda. Misol uchun: Vilis (ulus), takal (tak el), ko'chi (ko'ch-ko'chmoq), ano (ona) va boshqalar."<sup>46</sup>

O'zbek tili ham fors va pashtu tillaridek, Afg'onistonning qadimiy tillaridan biri bo'lib, mamlakatning shimol va shimoli-sharqiy viloyatlarida yashab, shu tilda gaplashadilar.<sup>47</sup> Afg'oniston o'zbek tilining shakllanishida uchta sheva – o'g'uz, qipchoq va qarluq shevallari xususiyatlari ishtirok etgan<sup>48</sup>.

## § 1.2. Afg'onistondagi lisoniy vaziyatning tarixiy bosqichlari.

1.2.1. *Temuriylar davridan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda Afg'onistondagi lisoniy vaziyat.* Temuriylar davri va XX asr boshlaridagi Afg'oniston hududida o'zbek tilining mavqeyi juda yuqori bo'lgan va bu davrda o'zbek tili nafaqat adabiyotda, balki ilm-fan va madaniyatda ham muhim rol o'ynagan. Temuriylar hukumati davrida turkiy til, xususan, o'zbek tili (Chig'atoy tili), Afg'oniston va uning atrofidagi hududlarda yuksalish natijalarini ko'rsatgan. Bu davrda o'zbek tilida ijod qilgan mashhur shoirlar va yozuvchilar nafaqat o'zbek

<sup>42</sup>دانشنامه آزاد، <http://www.wikipedia.org>

<sup>43</sup>دايره المعارف بزرگ اسلامي، درمورد كلمه "پاميرى"، 17-9-2010.

<sup>44</sup> Vladimir Kushev (1997). "Areal Lexical Contacts of the Afghan (Pashto) Language (Based on the Texts of the XVI-XVIII Centuries)". Iran and the Caucasus. doi:10. 1163/157338497x00085. JSTOR 4030748.

<sup>45</sup> ارال، عزيزالله. "اوزبېك تېلى مىلى كۈنى 29". میزان، 21- اكتوبر ("، واژه های سیار زبان اوزبېكى، مقالېلر و شعرلر توپلىمى. لېبېب، محمد عالم و باشقېلر. كابل: افغانستان، واژه بېل. 2020. بېت. 113.

<sup>46</sup> ارال، عزيزالله. "اوزبېك تېلى مىلى كۈنى 29". میزان، 21- اكتوبر ("، واژه های سیار زبان اوزبېكى، مقالېلر و شعرلر توپلىمى. لېبېب، محمد عالم و باشقېلر، كابل: افغانستان، واژه بېل. 2020. بېت. 113.

<sup>47</sup> احمدى، محمدادريس، 16-10-1386، معلومات عمومى افغانستان، - <https://geo-of-afg.blogfa.com>

<sup>48</sup> ندېم، عبدالحميد، 18-12-1398، معرفى لهجه های زبان اوزبېكى در افغانستان (کنفرانس علمى- تحقیقى)، سایت اکادمى علوم افغانستان)

tilini rivojlantirish, balki fors tilidagi adabiyotning ham rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatganlar.

Alisher Navoiy va boshqa turkigo'y shoirlarning asarlari o'zbek tilining ilmiy va adabiy o'rni haqida muhim dalillarni taqdim etadi. Shuningdek, Afg'onistonning turli hududlarida o'zbek tilida ijod qilgan shoirlar va yozuvchilarning faoliyati bu tilning tarixi va rivojiga katta hissa qo'shgan. Afg'onistonda o'zbek tilining yuksalishi va uning adabiy merosi hamda turkiy tillarning o'rni Temuriylar davrida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan.

Shu bilan birga, o'zbek tili va uning adabiyoti Fors tilining ta'siri ostida rivojlanib, bu davrda ko'plab nodir asarlar yaratildi. Afg'onistonning turli hududlaridagi o'zbek tilida ijod qilgan yozuvchi va shoirlarning ishlari bu tilning boy va rang-barang tarixini tashkil etadi.

Eronlik shoir Manuchehr Domg'oni qasidasining bir baytida:

به راه تورکی مانا که خوبتر گویی  
تو شعر تورکی بر خوان مرا و شعر غزنی<sup>49</sup>

(Bu baytda Manuchehr turkiyda yozishni tavsiya qiladi. Turkiy tilda she'r aytish imkoniyati kengligini qayd etgan. Manuchehr bu she'r orqali g'aznaviylar davrida turkiy tili rivojlanganini ko'rsatgan).

Tarixchi G'ulom Muhammad G'uborning qayd etishicha, ... "Temuriylar hukumati o'rtaga kelishi bilan qaytadan mamlakat ma'naviyati yuksalib, ilm va adab, til va adabiyot yetarli darajada taraqqiy topdi<sup>50</sup>". Ushbu davrdagi lisoniy vaziyatda o'zbek tili chig'atoy tili nomi bilan qaror topdi.

Temuriylar davridagi turkiy adabiyot fors tiliga asoslangan bo'lsa-da<sup>51</sup>, o'zbek tili yoki chig'atoy adabiyoti g'aznaviylar va saljuqiylar davrida ham mavjud bo'lgani<sup>52</sup> bu tilning badiiy ijod tili sifatida davom etganini asoslaydi.

Eski o'zbek tilining yuksalishi haqida Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn"<sup>53</sup> va "Majolis un-nafois" asarlarida turkiygo'y shoirlar haqida ma'lumot beradi<sup>54</sup>. "Shohrux Mirzo, uning o'g'li Boysung'ur Mirzo va So'ngra Xuroson (bugungi Afg'oniston)da Sulton Husayn Boyqaro o'zbek tili va adabiyotini rivojlantirishga hissa qo'shdi<sup>55</sup>.

Temuriylar davridagi lisoniy vaziyatning asosiy belgilari quyidagicha:

1. Din, ilm-fan tili sifatida arab tilining rivojiga alohida e'tibor qaratilgan.
2. Badiiy adabiyot tili sifatida fors tili rivojlandi.
3. Temuriy hukmdorlar, ayniqsa, Shohrux Mirzo hukmdorligida turkiy tilning taraqqiyotiga alohida ahamiyat berildi. Temuriylar davrida o'zbek tili "chig'atoy tili" nomi ostida ijtimoiy vazifa bajardi va rivojlandi.
4. Alisher Navoiy va boshqa ma'rifatparvar arboblarning sa'y-harakatlari natijasida turkiy til rivojlandi.

<sup>49</sup>ديوان منوچهر دامغانی، به کوشش محمد دبیرسیاقی، تهران: انتشارات زوار سال خورشیدی 1385. غیار، غلام محمد. افغانستان در مسیر تاریخ. جلد: اول و دوم، کابل، بنگاه انتشارات میوند. سال خورشیدی 1387. صفحات 275-280.

<sup>51</sup>صفا، ذبیح الله. تاریخ ادبیات در ایران، ج4، سال خورشیدی 1391. ص. 146.

<sup>52</sup>ابراهیم، رحیم. 1392. ادبیات اوزبیک افغانستان، بابر انجمنی. سایت نامی: [www.bayanifoundation.com](http://www.bayanifoundation.com)

<sup>53</sup>نواهی، علیشیر. محاکمه اللغتين، مهتم: تاشقین بهایی. هجری بیل 1395. بیت 64-65.

<sup>54</sup>نواهی، علیشیر، 1392، مجالس النفايس، مهتم: عبدالله رویین. هجری بیل 1392. بیت 22.

<sup>55</sup>زوبل، محمدحید، 1386، تاریخ ادبیات افغانستان، کابل، بنگاه انتشارات میوند. سال خورشیدی 1389. صفحات 188-192.

Ibrohim Rahim Afg'onistonda XIV asrdan XX asrgacha turk-o'zbek tilida yozilgan yuzdan ortiq asar haqida ma'lumot keltirgan<sup>56</sup>.

Turkiy, ya'ni o'zbek tilida ijod qilinishi mazkur tilning Afg'oniston o'zbeklari uchun ona tili sifatida yashab kelgani, badiiy til, ijod quroli sifatida rivojlanganini ko'rsatadi.

1.2.2. *So'nggi yuz yillikda Afg'onistonda o'zbek tilining qo'llanishi.*

1919-yildan 2021-yilgacha bo'lgan so'nggi yuz yillikka oid hujjatlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi davr boshlanganini ko'rsatadi.

Sotsiolingvistikaga oid tadqiqot materialini to'plashda eng faol quyidagi usullar qayd etilgan:

1) kuzatish; 2) anketa tarqatish; 3) intervyu olish; 4) faktik materiallar manbaini tahlil qilish; 5) eksperiment o'tkazish<sup>57</sup>.

Tadqiqotimizda, asosan, kuzatish va faktik materiallar manbaini tahlil qilish usulidan foydalandik.

Afg'onistonning so'nggi yuz yilligida hukmronlik qilgan hukumatlar davridagi lisoniy vaziyatni quyidagi bosqichlar asosida izohlaymiz:

1. Amirlik davridagi lisoniy vaziyat – o'zbek tiliga qisman e'tibor qaratilgan davr. Bu bosqichni o'zbek tilining tiklanish davri sifatida izohlash mumkin.

2. Qirollik davridagi lisoniy vaziyat – o'zbek xalqi va tili uchun sinovli bo'lgan davr. Bu davrda o'zbek va turkman tillari dasturlari noma'lum sabablarga ko'ra ruxsat berilmay butunlay to'xtatildi<sup>58</sup>.

Bu davrda "fors va o'zbek tillarida bo'lgan 237 ta qo'lyozma kitob yoqib yuborilgan"<sup>59</sup> Afg'onistonda boshqa tillarni unutilish lozimligini ta'kidlanadi<sup>60</sup>. Pashtu tili yonida fors-dari tili matbuot rasmiy tili sifatida o'ziga xos o'rin egallaydi. Boshqa etnik guruhlar, xususan, o'zbek xalqi uchun ona tilida o'qish, yozish man etildi<sup>61</sup>.

3. Xalq demokratik respublikasi davridagi lisoniy vaziyat – o'zbek tili rivoji uchun yangi davr hisoblanadi. Afg'onistondagi o'zbek-turkman xalqlarining madaniyati yuksalishi, ona tillarining o'rgatilishi va tillari ommaviy axborot vositalariga kiritilishi uchun hukumat tomonidan rasmiy buyruq chiqarilib, ushbu tillar nashriyotiga ruxsat berildi. 1978-yil 28-may kuni "Afg'oniston demokratik respublikasining 4-sonli buyrug'i"ga binoan o'zbek ziyolilari kurashi asosida o'zbek tilida "Yulduz" gazetasi ommaviy axborot vositalari tarixida birinchi marta Kobulda faoliyat boshladi. Ammo afg'onistonlik o'zbeklar bolalari ancha paytlar ona tilida ta'lim olishdan mahrum qoldilar<sup>62</sup>.

4. Mujohidlar davridagi lisoniy vaziyat – o'zbek tili rivojlanishiga imkoniyat yaratilgan davr. Marshal Do'stum hukmronlik faoliyati nafaqat o'zbek tili

<sup>56</sup> Ibrahimi, Rahim. *Adbiyat chغتایی (اوزبیکي) افغانستان*. سال خورشیدی 1400.

<sup>57</sup> Berdialiyev A., Turdibekov M. *Sotsiolingvistika*. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 134 b. – B. 108.

<sup>58</sup> كوهكن الف، محمد عالم 20. 2020-10. "جاياگاه زبان اوزبیکي در افغانستان، از گذشته ی محروم تا تجليل آن در سطح ملی" [www.bbc.com/kabul/afghanistan](http://www.bbc.com/kabul/afghanistan)

<sup>59</sup> رحيم، ابراهيم. *ادبيات اوزبیکي افغانستان*، بابر انجمنی. سال خورشیدی 1392. 9-28.

<sup>60</sup> ميمنهگی، تورديقل، 16-12-201، محمد گل مهمند ادامه دهنده جنایات امیر عبدالرحمن و عامل فاجعه حریق کتیب تاریخی اوزبیکي. <https://www.uzlig.com>

<sup>61</sup> مینى، محمدکاظم، افغانستانده گی تورکی مطبوعات نینگ قیسقه تاریخی، <http://bayanifoundation.com>

<sup>62</sup> تاشقین بهایی، سید تاج الدین، 2020، «اوزبیک تیلی درسلیک کتابلری 29 «میزان اوزبیک تیلی ملی کونی و مقاله لرو شعر توپلمی. کابل: افغانستان، 81-83 بېنلر. 2020.

yuksalishiga sabab bo'ldi, balki Afg'oniston o'zbeklarini qayta tiriltirib, o'zbek tili va xalqini yuzaga chiqarishiga sababchidir.

5. Diktatorlik davridagi lisoniy vaziyat – o'zbek xalqi va tili uchun halokatli bo'lgan davr. O'zbek xalqi qiynoq va siquvga olindi, o'zbek tilida yozuvlar nashr etilishiga ruxsat berilmadi.

6. Yangi respublika davridagi lisoniy vaziyat. Bu davrda asosiy qonunda turkiy (O'zbek-Turkman) tillarining mamlakatda rasmiy til sifatida qabul qilinishi bo'ldi. O'zbek tilining bunday maqomga ega bo'lishida, 2003-yili yo'lga qo'yilgan Asosiy qonunda qatnashgan shimol va shimoli-sharq viloyatlari vakillari, ayniqsa, Marshal Abdurrashid Do'stunning yetakchiligi va jasurona kurashi, O'zbek va Turkman namoyondalarining jasurligi katta ahamiyatga ega bo'ldi.<sup>63</sup> Afg'oniston Asosiy qonunida quyidagicha matn qabul qilingan: "Aholining ko'p qismi O'zbek, Turkman, Pashtu, Nuristoni, Baluchi, yoki Pomiri tillaridan birini biladigan hududlarda bu til Pashtu va Dari tillaridan tashqari rasmiy uchinchi til bo'lib, bu tilning kuchlantirish va quvvatlantirish davlat zimmasidadir. Ayni holda ushbu tillarni qo'llash tartibi qonun bilan tartibga solinadi<sup>64</sup>. Afg'oniston milliy radio va televideniya har kuni o'zbek tilida yarim soatlik ko'rsatuvlar davom ettiriladi. Biroq, Afg'onistonlik o'zbeklar Afg'oniston milliy radio-televideniya doirasida o'zbek tilida mustaqil radio-televideniya tashkil etishga chaqirishgan<sup>65</sup>. Yangi tizim Asosiy qonuni, o'zbek va turkman tillari rasmiy maqomga ega bo'lish va o'zbek tilida faoliyat qilish eshiklarini lang ochib qo'ydi. Nihoyatda ichki harakatlar sababli xalqaro ommaviy axborot vositalari ham Afg'oniston o'zbek tili uchun dasturlar yaratishga kirishdi<sup>66</sup>. Xalqaro televideniya ham o'zbek bo'limlari ochilib, fors va pashtu tillari yonida aniq soatlarda o'zbekcha ko'rsatuvlar, ayniqsa, o'zbekcha yangiliklar yoyila boshladi. Ommaviy axborot bo'yicha faoliyat qilib kelayotgan 67 ta jahon va mahalliy radiolarning 80 foizi O'zbek tilida dasturlar tarqatib kelgan<sup>67</sup>.

O'zbek tili Afg'oniston tarixidagi murakkab lisoniy vaziyatlardan omon chiqdi. O'zbek tilining Afg'oniston hududida yashab qolishi va hozirga qadar muloqot vositasi sifatida xizmat qilishi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

1. Murakkab lisoniy vaziyatlar tarixida Afg'onistondagi o'zbeklar o'z ona tillarini saqlab qolish uchun astoydil intildilar. O'z tashabbuslari bilan masjid va madrasalarda o'zbek mumtoz ijodkorlari asarlarini eshitish va o'qitilishini yo'lga qo'ydilar. Muayyan davrlarda o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish ta'qiqlanganiga qaramasdan, ona tilini asrab qolishga qaratilgan sa'y-harakatlar davom etdi.

2. Ijodkorlar she'riy asarlarini ayrim gazetalarda o'zbek tilida e'lon qilishga harakat qildilar. O'zbek tilini omma e'tiboriga havola etishga intildilar.

<sup>63</sup> Aral, عزیز الله». کیریش» اونیوتیلیمس شعرلر و مقاله لر توپلمی، لیبیب، محمد عالم و باشقه لر. کابل: افغانستان، مطبعه واژه. 2020. 14- بیت.  
<sup>64</sup> دقیق، قانونمل محمد رحیم". 1392 قانون اساسی افغانستان (1301)- (1382)، افغانستان، نشر وزارت عدلیه افغانستان. سال خورشیدی. 1392. ص. 433.

<sup>65</sup> کوهکن الف، محمد عالم، "2020 جایگاه زبان اوزبیک در افغانستان، از گذشته‌ی محروم تا تجلیل آن در سطح ملی"  
<sup>66</sup> توپگون، حسام الدین". افغانستان اوزبیک تیلی نینگ پیترمه لرو اجتماعی ترماق لرده گی احوالی" اونیوتیلیمس مقاله لر و شعرلر توپلمی، لیبیب، محمد عالم و باشقه لر. کابل: افغانستان، مطبعه واژه. 2020. - 279 بیت.

<sup>67</sup> سازمان فرهنگ و ارتباطات اسلامی). ۱۳۴۰/۵/۵. (رسانه ها در بلخ، <https://icro.ir>)

3. Ayrim she'riy san'at namunalarilardan o'zbek tilining badiiy til sifatida qo'llanishi uchun vosita sifatida foydalanildi. Shir-u shakar san'ati o'zbek tilining she'r misralari orqali o'quvchiga yetib borishini ta'minlandi.

### § 1.3. Afg'oniston Islom Respublikasida tillar maqomining huqudij asoslari.

Afg'oniston Asosiy qonuni birinchi marta, e'tiborli qonun sifatida Amonulloxon hukumati davrida joriy qilingan. Afg'oniston 1919-yili mustaqillikka erishish bilan shu Asosiy qonun ham yuzaga keladi<sup>68</sup>. Mamlakatga siyosiy o'zgarishlar yuzaga kelishi bilan ushbu Asosiy qonun hukumatlar tomonidan sakkiz marta o'zgartirildi. Asosiy qonunning barcha o'zgarishlar davrida pashtu va fors tillari qonunga kiritilib, mamlakatning rasmiy tili sifatida ishlatilib kelgan.

1964-yildagi Asosiy qonunda fors tili dari tiliga o'zgartirildi. Fors va dari tillari siyosiy jihatdan ajratilgan bir til hisoblanadi<sup>69</sup>. Boshqa bir guruh tilshunoslar fors va tojik tillarini alohida-alohida tillar deb da'vo qiladilar. Fors tilini Eron, dari tilini Afg'oniston va tojik tilini Tojikiston tili, deb hisoblaganlar. Aholi soni bo'yicha pashtunlar Afg'onistondagi ba'zi boshqa etnik guruhlardan ko'p, lekin til jihatdan ular mutlaq ozchilikni tashkil etadi. Bu mamlakatdagi asosiy etnik hazoralar, tojiklar, aymoqlar guruhlari fors tilida so'zlashadilar. Afg'onistondagi o'zbeklarning ko'pchiligi esa o'z tillaridan tashqari, fors-dari tillarida gaplashganlar. Lekin davlatning "Davlat madhiyasi" pashtu tilidadir.

1978-yili, Savr inqilobi bo'ldi, "Afg'onistondagi qardosh millatlar, jumladan, o'zbek-turkman tili hukumatning rasmiy buyrug'i asosida 1978-yil 28-may kuni Afg'oniston demokratik respublikasining to'rtinchi sonli buyrug'i" nomi ostida hukumatning rasmiy jurnalida bosmadan chiqib tatbiq etildi<sup>70</sup>. Shundan so'ng o'zbek tilida yozish, o'qish va faoliyat olib borish ruxsati davlat tomonidan rasmiy shaklda belgilandi. 2001-yilda, Afg'oniston Asosiy qonuni yangi reforma bilan o'zgartirildi. 2003-yilda turkiy (O'zbek va Turkman) tillari mamlakatda rasmiy til sifatida qabul qilindi<sup>71</sup>.

Afg'oniston Asosiy qonunida "Aholining ko'p qismi o'zbek, turkman, nuristoni, baluchi yoki pomir tillardan birini biladigan hududlarda bu til pashtu va dari tillaridan tashqari rasmiy uchinchi til bo'lib, bu tillarni kuchlantirish va quvvatlantirish davlat zimmasidadir. Ayni holda ushbu tillarni qo'llash tartibi qonun bilan tartibga solinadi<sup>72</sup>", deb qayd qilingan.

Afg'oniston Islom Respublikasi 2020-yil 21-oktabr sanasida Afg'oniston o'zbek tili milliy kuni deb e'lon qildi<sup>73</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Afg'oniston Islom Respublikasida ijtimoiy-siyosiy jarayonning lisoniy vaziyatga ta'siri va o'zbek tilining qo'llanish sohalari**" deb nomlangan.

<sup>68</sup> Meshran (2021, November 17). <http://www.meshran>.

<sup>69</sup> حبيبي، عبدالحی. تاریخ مختصر افغانستان. کابل: افغانستان. انجمن تاریخ و ادب افغانستان. 1970. ص. 132.

<sup>70</sup> شرعی جوزجانی، سید عبدالحکیم، 2021. "عوامل عروج و نزول زبان اوزبیکي در محدوده افغانستان" <https://www.uzlig.com>

<sup>71</sup> ارال، عزیزالله. «باش سۆز» 2020، «کیریش»، اونوتیلیمس شعرلر و مقاله لر توپلمی، لیبب، محمد عالم و باشقه لر. کابل: افغانستان، مطبعه واژه. 2020. 9 بیب.

<sup>72</sup> دقیق، قانونمل محمد رحیم "2013. قانون اساسی افغانستان (1301) - (1382)، افغانستان، نشر وزارت عدلیه افغانستان. 2013. ص. 89.

<sup>73</sup> زهیر، محمد ظاهر، 2020، زبان اوزبیکي در افغانستان از زبان های بومی و اداری قدامت تاریخی است " 2 میزان اوزبیک تیلی ملی کونی، مقاله لرو شعرلر توپلمی. کابل: افغانستان. 2020. 14 بیب.

§ 2.1. *Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'zbek tili ijtimoiy mavqeyiga ta'siri.* Afg'oniston maishiy turmush tarzida o'zbek tili og'zaki va yozma nutq ko'rinishida qo'llanib keladi. O'zbek tili Afg'oniston tarixiy muhitida ko'p qiyinchiliklarga duch keldi. Ayniqsa, mamlakatning so'nggi yuz yillik turmush tarzida Afg'oniston o'zbek xalqi taraqqiyotga zid vaziyatlar shohidi bo'lganlar. O'zbek tili lisoniy hamjamiyatining ayrim ko'rinishlarigina mavjud edi va u qiyin vaziyatda rivoj topdi.

Lisoniy hamjamiyatning muloqot ko'rinishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Adabiy til. 2. Dialekt. 3. Sotsiolekt. 4. Argo, jargo, sleng. 5. Koyne, 6. So'zlashuv tili<sup>74</sup>.

So'zlashuv tili og'zaki muloqot ko'rinishi bo'lib, boshqa nutq ko'rinishlaridan keng imkoniyatlarga egaligi, qaytarilmasligi, uslubiy bo'yoqdorlikka egaligi bilan ajralib turadi.

“So'zlashuv tili – adabiy til me'yorlariga ega bo'lmagan, ma'lumotsiz va o'rta ma'lumotli shahar aholisining nutqi” sifatida ta'riflangan<sup>75</sup>.

*Hozirgi Afg'onistondagi lisoniy vaziyat.* Afg'onistonda tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy muhit, o'zbek tiliga munosabat turg'un bo'lmagani sababli adabiy til va sheva o'rtasidagi alohidalik to'liq qaror topmagan. Ko'proq sheva, so'zlashuv tilining ustunligi kuzatiladi.

Lisoniy vaziyatning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

*Adabiy til va shevalar.* Ko'p sonli o'zbeklar istiqomat qiladigan viloyatlar o'z ichida sheva xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi: qipchoq va qarluq. Shimoliy viloyatlarda qarluq shevasi hokim. Bu shevada ko'proq asar yozilgani uning sayqallanganidan dalolat beradi. Qipchoq shevalari vakillari nutqida qarluq lahjasining ta'siri kuzatilmoqda. Bu esa qarluq lahjasining madaniylashish belgisiga egaligi bilan izohlanadi. Shevalar Afg'onistonda o'zbek tili saqlanib qolishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Radio, televideniya, nashriyotda ham sheva ta'siri katta.

Qipchoq, qarluq shevalari o'zbek tilining asosini tashkil qiluvchi muloqot shakllaridir<sup>76</sup>.

O'zbeklar ko'p istiqomat qiladigan 9 viloyatda dari tilini yaxshi tushunadilar. Shu tilda savod chiqaradilar, ona tilidan ham a'lo o'zlashtiradilar. Pashtu tilini kam darajada biladilar.

Adabiy til yozma nutq, matbuot tili, ta'limda o'zbek tilining qo'llanishi natijasida sayqallanib bormoqda. Biror tizimli qoida yo'q. Adabiy til deyarli shakllanmagan. Maktablarda, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilining o'qitilishi adabiy til me'yorlarining farqlanishiga olib keladi.

*So'zlashuv nutqi yosh mezoniga ko'ra farqlanadi.* Shu jihatdan yoshlar va kattalar o'rtasida tafovut mavjud. Katta yoshdagilar Afg'onistonda 30 yil oldin

<sup>74</sup> Usmanova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 13.

<sup>75</sup> Usmanova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 9.

<sup>76</sup> Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 176.

ta'limda o'zbek tili bo'lmagani uchun savodsiz qolgan, yozma nutqni to'liq egallamagan, o'zbek tilidan begona bo'lgan.

*Yoshlar ko'proq adabiy tilda gapirishga harakat qilmoqda.* Yoshlar muloqotida ham og'zaki o'zbekcha nutq, ham yozma o'zbekcha nutq saqlanib qolgan. Ijtimoiy tarmoqlar, maktab darsliklari ta'sirida o'zbekcha so'zlar o'rniga o'zlashma so'zlar ko'p ishlatilmoqda: *yog'och – cho'p, yer– zamin, ari– zambur.*

Shahar og'zaki nutqida chet so'zlar ko'p qo'llanadi. Og'zaki nutq gender jihatdan ham farqlanadi. Erkaklar nutqida *attanga la'nat, javonmarg bo'l, jonimarg bo'l* kabi vulgar so'zlar ishlatilsa, ayollar muloqotida qarg'ishlar (og'zingdan qoning kelsin) ko'p uchraydi. Erkaklar bolalarini *tobutim poyasi, otam, farzandim* deb suyardilar.

Afg'oniston o'zbek aholisi orasida ham erkaklar savodli, ayollar savodsiz. Ayollarga erkakning ta'siri kattadir.

*O'zbek tiliga forsiy izofa ta'siri ko'p.* Deyarli hamma birikmalarni forsiy izofa asosida tuzib, oxiriga o'zbekcha fe'l qo'shib ishlatadilar.

Dari tilidagi cho'ziqlik o'zbek tiliga ham ta'sir qilgan. O'zbekcha so'zlar ham cho'zib talaffuz qilinadi. Aslida bu cho'ziqlik dari tiliga arab tilidan o'tgan.

*O'zbek tili, asosan, og'zaki nutqda saqlanib qolgan.* Buni bir muddat savodsizlik natijasi deb baholash mumkin. O'zbek tili kattalar nutqida, asosan, an'anaviy holda, yoshlar nutqida yangilanib saqlangan.

Internet orqali ingliz va boshqa baynalmilal so'zlar kirib kelgan: *kompyuter texnologiyalari, printer, uskuna, skaner, problem, interneyshenel.*

O'zbek tili maishiy turmushda og'zaki va yozma nutq ko'rinishida qo'llanib kelgan. Kundalik muomala va munosabatlarimiz, o'y va fikrlarimiz ana shu og'zaki nutq bilan ifodalanadi. Yozma nutq harflar va so'zlar vositasida shakllanadi<sup>77</sup>. Chunki, maishiy turmush til vositasi bilan davom etadi, til ham so'zlashuvchilari va maishiy turmush bilan tirikdir. Har til egalari o'z tilida gaplashmasa, xususan, oilasi, keyinchalik yashab turgan qishlog'i va muhitida ona tilini tirik asray olmasa, bu tillar qarovsiz tilga aylanadi va tezlikda o'lishi mumkin. Har bir til tirik qolishi uchun og'zaki tilni maishiy turmush tarzida tirik asrab qolish nihoyatda muhim sanaladi.

Afg'oniston lisoniy hamjamiyatida o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeyiga ikki omilning ta'sirini qayd etish lozim:

1. Tashqi omillar. 2. Ichki omillar.

O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeyiga ta'sir ko'rsatgan tashqi omillar Afg'oniston hududidagi hukumat nuqtayi nazari, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, milliy-etnik yondashuv bilan izohlanadi.

Afg'oniston lisoniy hamjamiyati ko'p etnik qatlamli ijtimoiy-siyosiy muhitga asoslangan.

*Afg'onistonda o'zligini yo'qotib, mutlaqo afg'onlashgan va tojiklashgan turkiy ellar juda ko'p.* Ushbu etnik guruhlardan ayrimlari turli ijtimoiy va siyosiy omillar sabab o'tgan davrlarda o'z tillarini yo'qotib pashtu va dari tillarida so'zlashishga majbur etildilar. Afg'oniston xalqlari orasida faqat o'zbek, turkman,

<sup>77</sup> Aishanچ، ذكر الله، حاضرگی اوزبېك تېلى، 2008، كانادا 38. بېت.

qirg'izlargina o'z tillarida gapirishda davom etishdi va bir qadar yozishni saqlab qolishdi. O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeyiga tillarning qo'llanish holati, tillarning ijtimoiy faollashuvi, til ko'nikmalarining hosil bo'lishi ichki omil sifatida ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek tili qo'llanishida keskin o'zgarishlar jarayoni o'zbeklar madaniyatining shaharlashishi, savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'yishlari, boshqa xalqlar bilan keng aloqaga kirishlari tufayli dari tilining o'zbek tiliga ta'sirini kuchaytirib yubordi. Bu o'zgarishlar va aloqalar o'zbek tilining rivojlanishiga emas, aksincha, uning buzilishiga olib keldi. O'zbeklar yashaydigan bir qator shaharlar markazida dari tili umumxalq uchun aloqa tili bo'lgani bois bunday joylarda yashaydigan o'zbeklar tiliga anchagina ta'sir o'tkazgan. O'zbek tilining Afg'onistonda qanday holatlar sababli asrab qolishning katta omili, bir qator xalqlarning ona tiliga e'tibor qaratishi va qishloqlarda umumiy ma'noda "Mulloxona" degan uy maktablarining borligidir.

Har bir tilning ijtimoiy mavqeyi, rivojlanishining dastlabki belgilaridan biri ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning shakllanishidir. Afg'oniston lisoniy hamjamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy terminologiya, asosan, pashtu va forsiy tillarida shakllangan. Bu esa mazkur tillarning ijtimoiy-siyosiy mavqeyini ko'rsatadi. O'zbek tilida ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning ayrim ko'rinishlarini yuzaga kelgan bo'lib, mazkur tilning ijtimoiy mavqeyi jihatidan ancha tor ekanligini ko'rsatadi.

"Ijtimoiy-siyosiy terminologiya – terminologik leksikaning alohida qatlami hisoblanib, ijtimoiy-siyosiy tushunchalarning asosiy foizini qamrab oladi. Ijtimoiy-siyosiy leksika jamiyatning holati va ijtimoiy hayot hodisalarini aks ettiruvchi, ma'lum bir tarixiy davrda muayyan jamiyatga xos bo'lgan qoidalar ifodalangan so'zlar majmuasidir"<sup>78</sup>.

Arab yozuviga asoslangan Afg'oniston o'zbek tili yozuvi tovush yozuvi bo'lib, unda qo'llanib kelinayotgan arab harflari soni 28 tadir. Ularga yana forscha va yana turkiy tillarda bo'lgan tovushlar ko'zda tutilgan" "ch(چ), p (پ), j(ج), g " (گ) harflari qo'shilgan. Shunday qilib hozirgi Afg'oniston o'zbek tilida hammasi bo'lib 32 harf (grafik) bor:

ا، ب، پ، ت، ث، ج، چ، ح، خ، د، ذ، ر، ز، ژ، س، ش، ص، ض، ط، ظ، ع، غ، ف، ق، ک، گ، ل، ی  
79. «او(U)، او(O)، ای (I)، ای(E)» : ای، ای، او، او، آ: belgilar bilan ifoda etiladi: «ای(E)، ای (I)، او(O)، او(U)». O'zbek tilidagi 6 ta unlidan ayirib turuvchi ravishda belgi qo'yib, yana ikkita unli fonema farqlanadi.

Islom Respublikasi hukumati hokim bo'lishi bilan oxirgi 20 yilda o'zbek millatiga tegishli o'nlarча madaniy uyushmalar va turli nodavlat tashkilotlari

<sup>78</sup> Gapparov A. K. Ijtimoiy-siyosiy leksikaning sotsiolingvistik aspekti (publitsistik matn misolida). Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 13.

<sup>79</sup> لیبیب، سیدمحمدعالم، «افغانستان ده اوزبیک تیلی نینگ الفبا و املا معاماسی»، 29 میزان اوزبیک تیلی ملی کونی و مقاله لر و شعرلر توپلمی. 36-34 بېتلر.

Afg‘oniston markazi Kobul, shimol va shimoli-sharqiy viloyatlarida tashkil etilib faoliyat boshladi. Ushbu madaniy uyushmalar ham o‘zbek tili jonlanishi uchun o‘z ulushlarini qo‘shgan.

### § 2.2. *O‘zbek tilining davlat tashkilotlari va muassasalarida qo‘llanishi.*

Lisoniy vaziyatlar tarixiga Afg‘onistondagi boshqa etnik guruhlar va millatlar madaniy huquqlarining birinchi rasmiy tan olinishi Afg‘oniston demokratik Respublikasi davriga to‘g‘ri keldi. 2001-yil yangi Islom Respublikasi hokimiyati yuzaga kelishi bilan o‘zbek tili qonunan rasmiylashtirildi. Shundan keyin Kobul va Shimoliy viloyatlardagi bilim yurtlarida o‘zbek tili kafedralari tashkil etildi. O‘zbeklar yashaydigan mintaqalarda, ya‘ni Badaxshondan Bodg‘izgacha bo‘lgan muallim tarbiyalash muassasalarida o‘zbek tili bo‘limi ochilishi bilan maktab tashkilotlarida o‘zbek tili uchun muallimlik o‘rinlari kiritildi. Afg‘oniston Fanlar Akademiyasi maorifdagi ta‘lif va tarjima bosh boshqarmasi va ta‘limiy hisob bosh boshqarmasi hamda turli idoralar tashkilotlarida o‘zbek tili joriy etildi.

§ 2.3. *O‘zbek tilining ta‘lim sohasida qo‘llanishi.* Afg‘onistonda ta‘lim tizimiga bir asr oldin asos solinib ish boshlagan, birinchi marta “Afg‘onistonda ta‘lim tizimi amir Habibulloxon davrida tashkil etilgan. Amonulloxon davridan Dovudxon davrigacha 55 yil o‘tgach mana shu zamon orasida o‘zbek tilida darsliklar chop etilmagan, qasddan ta‘lim sohasiga kiritilmagan”<sup>80</sup>. 1984-, 1983-, 1981-yillari o‘zbek tilida 6-sinfgacha turli fanlarda darslik kitoblar tayyorlangan edi.<sup>81</sup> 2001-yilda Afg‘onistonda tolibon rejimi qulab, yangi hukumat tuzilgach va Afg‘oniston maorif vazirligi o‘zbeklar yashaydigan hududlardagi maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish tizimini joriy qildi.”<sup>82</sup> 6-sinfgacha o‘zbek tilidagi darslik kitoblari nashr etilib, o‘zbeklar yashaydigan mintaqalarga tarqatildi. 5-sinfdan 10-sinfgacha o‘zbekcha darsliklar chop etildi<sup>83</sup>.

§ 2.4. *O‘zbek tilining ommaviy axborot vositalarida qo‘llanishi.* Matbuot har bir muhit va mintaqada muhim ro‘l o‘ynashi bilan o‘sha mintaqaning tili oliy darajada unib o‘sishi va madaniyati yuksalishiga asosiy omil bo‘ladi. Afg‘oniston tarixiy matbuoti 1868-yilda boshlangan bo‘lsa-da, Afg‘oniston o‘zbek tili matbuoti faoliyati 1978-yildan boshlandi.

Afg‘oniston xalq demokratik hukumati davrida o‘zbek tili va turkman tili uchun 30 daqiqalik vaqt ajratilgan. “Afg‘onistonda tolibon hokimiyatiga qadar jami 483 ta ommaviy axborot vositalari, jumladan, 190 ta radio stansiyasi, 96 ta telekanal va 183 ta bosma nashriyot faoliyat ko‘rsatar edi.<sup>84</sup> Bu ommaviy axborot bo‘yicha faoliyat qilib kelayotgan 67 ta jahon va mahalliy radiolarning 80 foizi o‘zbek tilida dasturlar ulashib kelgan<sup>85</sup>”.

“Afg‘oniston tarixida birinchi marta xususiy yetkazmalar faoliyat boshladi. Mamlakatga asos qo‘yilgan “Oyna” televideniyesi orqali o‘zbek tilida yangiliklar,

<sup>80</sup> يارقين، محمدحليم. «پيشينه چاپ كتاب توركي در مطبوعات رسمي افغانستان» <https://bayonifoundation.com>

<sup>81</sup> Eldosh M. Y. “Afg‘oniston umummaktablarida o‘zbek adabiyotini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari” dissertatsiya. – Toshkent, 2020. – B. 5.

<sup>82</sup> قوياش، اتوب الله. «اوزبېك تېلى درسلىك كتاب لر و اولرنينگ حاضركى وضعيتى». اوزبېك تېلى مىلى كونى 29مىزان مقاله لرتوپلى، 2020. 246بېت.

<sup>83</sup> <https://www.radionowruz.com/uzbek-language>

<sup>84</sup> راديو زمانه. (۲۰۲۲/۴/۱). «رسانه های افغانستان پس از طالبان: تعطیلی 154 رسانه و کاهش 86 درصد کارکنان زن».

<sup>85</sup> سازمان فرهنگ و ارتباطات اسلامی. (۱۳۴۰/۵/۵). رسانه ها در بلخ، <https://icro.ir>

televideniya ko'rsatuvlari tayyorlanib yoyila boshlagan edi. Xalqaro doiradagi televideniylarda ham o'zbek bo'limlari ochilib, fors va pashtu tillari yonida muayyan soatlarda o'zbekcha ko'rsatuvlar yoyila boshladi. Mazkur ko'rsatuvlar o'zbeklardan boshqa xalqlar diqqat-e'tiborini ham o'ziga qaratgan vaqtlari bo'lgan<sup>86</sup>". BBC xalqaro yetkazmasi Afg'oniston o'zbeklari uchun yarim soatlik dastur kiritdi. "Ozodlik", "TRT", "Amerika ovozi" kabi o'nga yaqin xalqaro yetkazmalar ham bizning tilimizda dastur yarata boshladi. Bu Afg'onistonda o'zbeklar mavjudligini keng ko'lamda namoyon etar edi<sup>87</sup>.

Afg'oniston o'zbeklari ijtimoiy tarmoqlarda Facebook, Twitter, Instagram, Telegram va boshqalardan foydalanishmoqda. Mamlakatda ko'pchilik o'zbek yoshlari o'z facebook sahifalariga ega bo'lib, u yerda turli mavzular bo'yicha fikr-mulohazalar yozib turadilar.<sup>88</sup>".

§ 2.5. *O'zbek tilining kitobchilik va nashriyot sohasidagi o'rni.* Afg'oniston tarixida o'zbek tilining kitobchilik va nashriyot sohasidagi rivojlanishi uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan. XIX asrning o'rtalarida amir Sheralixon davrida tashkil etilgan bosmaxona keyinchalik XX asr boshlarida kitob va gazetalarni chop etish sohasida yangi imkoniyatlarni yaratdi. Amir Habibulloxon davrida, 1901-1919-yillarda, Afg'onistonda muhim tarixiy asarlar, "Siroj ud-Tavorix" va "Siroj ul-Axbor" kabi gazetarlar nashr qilindi.

1968-yilda Muhammadyaqub Vohidiy Juzijoniy tomonidan amalga oshirilgan tashabbus bilan o'zbek tilida birinchi kitobning chop etilishi Afg'oniston matbuotining yangi bosqichga o'tishini anglatadi.

Muhammadhalim Yorqin tomonidan yozilgan "Kitobnoma" asari o'zbek tilida chop etilgan kitoblar haqida keng ma'lumotlar taqdim etib, Afg'oniston o'zbek kitobchiligining 50 yillik tarixini hujjatlashtiradi. "Kitobnoma"ning birinchi jildida 202 turdagi, ikkinchi jildida esa 185 ta kitob kiritilgan bo'lib, bu asar Afg'oniston o'zbek tilidagi kitoblar nashrining muhim katalogi sifatida ilmiy ahamiyatga ega. So'nggi 50 yilda arab yozuvida bosilib chiqqan o'zbekcha kitoblarning katalogi e'lon qilingan<sup>89</sup>.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Afg'onistonda o'zbek tilini ijtimoiy-madaniy sohalarda rivojlantirish omillari"** deb nomlangan.

§ 3.1. *Afg'oniston o'zbeklarining milliy ta'lim tizimini yaratish zarurati.*

Milliy ta'lim tizimi har bir mamlakat uchun juda muhim va ahamiyatlidir. Mana shu milliy ta'lim tizimi esa milliy o'quv dasturlari bilan chambarchas bog'liq. Shu asosda milliy o'quv dasturi darajasidagi ta'lim intilishlari va umidlarini ifodalab va milliy o'quv dasturini ishlab chiqish va tuzish zarur

<sup>86</sup>تولقین "الف"، محمد حسن. «اوزبیک تیلی نینگ دولت اداره لری نشریاتیدهگی اۆرنی» 29میزان اوزبیک تیلی ملی کونی و مقاله لر و شعرلر توپلمی. لیبیب، محمد عالم و باشقه لر، کابل: افغانستان، وازه نشریاتی، 2020. -239-240بیتلر.

<sup>87</sup>تویغون، سید حسام الدین. «افغانستان اوزبیک تیلی نینگ ییتکرمه لرو اجتماعی ترمافدهگی احوالی» اونوتیلیمس مقاله لر و شعرلر توپلمی، لیبیب، محمد عالم و باشقه لر. کابل: افغانستان، وازه نشریاتی، 2020. -279بیت.

<sup>88</sup>کوهرکن "ب"، محمد عالم. «افغانستان ییتکرمه لریده قوللنیله دیگن اوزبیک تیلی» 29میزان اوزبیک تیلی ملی کونی و مقاله لر و شعرلر توپلمی. لیبیب، محمد عالم و باشقه لر، کابل: افغانستان، وازه نشریاتی، 2020. -103بیت.

<sup>89</sup> یارقین، محمد حلیم. *کتابنامه، 1جلد، نشر ایتووچی: غضنفر بانگ- خراسان انتشارات موسسه سی، کابل: افغانستان. 2010. -8-7بیتلر.*

hisoblanadi. Milliy o‘quv dasturi mamlakat bo‘ylab ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi hayotiy masaladir.

Turli ijtimoiy omillar, lisoniy vaziyat sababli Afg‘oniston o‘zbeklari ona tilida ta‘lim olish huquqidan mahrum qilingan.

Afg‘oniston ta‘lim tizimi quyidagi to‘rt davrga ajratilgan:

1. Afg‘oniston klassik ta‘lim tizimi davri (Amir Sheralixon davridan – Habibulloxon davrigacha).

2. Afg‘oniston zamonaviy ta‘lim tizimi davri (Omonilloxon davridan – Dovudxon hukumatining oxiriga qadar).

3. Afg‘oniston ta‘lim tizimining yettinchi Savr inqilobidan keyingi davri (demokratik xalq partiyasi davridan – tolibon davrigacha).

4. Afg‘oniston ta‘lim tizimining yangi – Respublika davri (Homid Karzaydan – tolibon davrigacha).

Afg‘onistondagi lisoniy vaziyatga qaramasdan, mamlakatning asosiy qonunidagi moddalarga rioya qilinsa, adolat bilan yondashilgan qonunlar amalga oshsa, Afg‘oniston o‘zbeklarining madaniy huquqiga e‘tibor qaratilsa, oxir-oqibat, Afg‘oniston o‘zbek tilining taraqqiyoti va rivoji yo‘lidagi ayrim to‘siqlar va kamchiliklar bartaraf etilsa, Afg‘oniston o‘zbeklarining milliy ta‘lim tizimi yo‘lga qo‘yilsa, o‘zbek tili mavqeyini yuksaltirish va rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

§ 3.2. *O‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha milliy kadrlar tayyorlashni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish.* Afg‘onistonda milliy kadrlar tayyorlash o‘zbek tilini ommalashtirishning muhim omili hisoblanadi. Jamiyatning har tomonlama rivojlanishi, islohotlarning amalga oshirilishi va eskirgan qarashlarning o‘zgarishi uchun, avvalo, ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish zarur. Milliy kadrlar tayyorlash uzluksiz ta‘lim tizimi orqali amalga oshiriladi, bu esa sog‘lom va yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Afg‘onistonda ta‘lim darajasi ilgari past bo‘lsa-da, oxirgi 15 yil ichida savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshdi, bu esa jamiyatning taraqqiyoti va o‘zbek tilini ommalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Savodxonlikni oshirish va ta‘limni takomillashtirish orqali Afg‘onistonda o‘zbek tili va madaniyati yanada rivojlanishi mumkin. Buning uchun uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlari: maktabgacha, boshlang‘ich, o‘rta, litsey, oliy o‘quv yurtlari va malaka oshirish tizimlari o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlashi lozim. Afg‘onistonning kelajakda o‘zbek tilini ommalashtirishdagi muvaffaqiyatlari ta‘lim tizimining sifatiga bog‘liqdir.

§ 3.3. *Madaniy muassasalarning o‘zbek tilini rivojlantirishdagi o‘rni.*

Madaniy muassasalar o‘zbek tilining rivojlanishi, uning o‘sishi va taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Afg‘onistonda madaniy muassasalar, asosan, shaxsiy tashabbuslar bilan tashkil etilgan va faqat xususiy sektorda faoliyat yuritmoqda. Bularning hech biri davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanmaydi, bu esa o‘zbek tilining yanada keng tarqalishi va rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, madaniy muassasalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularni moliyaviy jihatdan mustahkamlash zarur. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek tilining rivojlanishiga yanada katta turtki berishi mumkin.

§ 3.4. *O'zbeklarning nufuzi yuqori bo'lgan tumanlar davlat idoralarida o'zbek tilida ish yuritishga erishish.*

Afg'onistonda o'zbek tilini rivojlantirishda davlatning tizimli rejasi yo'qligi sababli o'zbek tili va adabiyoti kafedralarini bitirgan yoshlar ko'plab muammolarga duch kelishmoqda. Ularning aksariyati o'qigan sohalari bo'yicha ish topa olmaydi, chunki o'zbek tilida ish yuritish uchun zarur sharoitlar yaratilmagan. Agar hukumat tomonidan o'zbek tili keng tarqalgan mintaqalarda, masalan, Badaxshon va Foryob davlat idoralarida rasmiy til sifatida joriy etilsa, tilning rivojlanishi va uning ta'lim tizimidagi o'rni ancha yaxshilanishi mumkin edi. Afg'onistonda o'zbek tilini o'qigan shaxslar ona tiliga sadoqat bilan xizmat qilgan bo'lsalar-da, davlatning yetarli qo'llab-quvvatlashi bo'lmasa, bu tilning rivoji cheklangan bo'ladi.

## **XULOSA**

Afg'onistonda o'zbek tilining rivojlanishi, davlat tizimida qo'llanish muammolari masalariga bag'ishlangan ushbu tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga asos boladi:

1. Afg'onistondagi lisoniy vaziyat tarixiy taraqqiyoti va joriy holati, o'zbek tilining huquqiy, ijtimoiy mavqeyi sotsiologiyistik masalalarning negizini tashkil etadi. Sotsiologiyistik tilning jamiyatdagi o'rni, til va jamiyatning o'zaro ta'siri, tilning ijtimoiy vazifalari, qo'llanish darajasi, jamiyatdagi mavqeyini yoritishga xizmat qiladi. Afg'onistonning tarixiy va geografik tavsifi, 50 ga yaqin katta-kichik til ko'rinishlarini o'z ichiga olgan 7 ta til guruhining muloqot funksiyasiga asoslangan lisoniy jamiyati murakkab til siyosati va ijtimoiy munosabatni ifoda etadi.

2. Afg'onistondagi lisoniy vaziyat turli tarixiy taraqqiyot bosqichlarida farqlanib, har bir davrning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini aks ettirgan. Mamlakat hududidagi barcha tillar, ayniqsa, o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy vaziyat, aholining har xil etnik qatlamlardan tashkil topgani, tillarning qo'llanishiga va rivojlanishiga bog'liq ravishda turli daraja va mavqega ega bo'lgan. Afg'oniston ko'p tilli jamiyat hisoblanib, kichik etnik guruhlar tillari ham kommunikativ vazifa bajaradi.

3. Afg'oniston o'zbek tili XX asr boshlariga qadar hukmronlik qilgan sulolalar davridan omon o'tib keldi. So'nggi yuz yillik oxirlarida hukumat farmoni asosida o'zbek tilida o'qitish ruxsati berilgan. Islom Respublikasi davrida birinchi marta asosiy qonun moddalariga kiritilib, rasmiy til sifatida mavqega ega bo'lgan. O'zbek tilining mamlakatdagi vaziyati yaxshilanib, Afg'oniston o'zbek tili pashtu va dariy tillari bilan bir qatorda foydalanilgan.

4. O'zbek tili bir asr mobaynida o'zbeklar yashaydigan mintaqadagi maktablarda ta'lim tili hisoblangan. Keyinchalik ta'lim sohasida bir fan sifatida o'qitilgan. Afg'onistonda tillar maqomi hududiy asoslar, tarixiy vaziyat va siyosiy tizimlar asosida belgilangan. Mamlakatda pashtu, fors-dari va o'zbek tili asosidagi siyosiy va ijtimoiy vaziyat yuzaga kelgan. Pashtu va fors tillari Afg'oniston etnik tarkibi qadimiy asoslariga bog'liq. Fors tili bilan pashtu tilining ziddiyatlari yillar bo'yi davom etib, fors tili dari nomiga o'zgartirilib, pashtu va dari tillari mamlakat asosiy qonuniga kiritildi va rasmiy maqomga ega bo'ldi. O'zbek tili ikki yarim asr mobaynida pashtu

va dari tillariga nisbatan past maqomda qaralib kelgan. O'zbek tili lisoniy vaziyat taqozosi bilan mamlakatda hukumat farmoni asosida Asosiy qonunga kiritilgan.

5. Afg'oniston Islom Respublikasida o'zbek tili maishiy turmush va madaniy-ma'rifiy tadbirlarda og'zaki va yozma nutq shaklida qo'llangan. Bu davrda ta'lim sohasida o'zbek tilining qo'llanishi, tadbirlar, seminarlar, simpoziumlar, ilmiy-adabiy, ijtimoiy yig'inlar tahlili lisoniy vaziyatlar tarixining o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Afg'oniston xalq demokratik hukumati davrida birinchi bor farmon asosida maktab darsliklari nashr etilgan va tarqatilgan. So'nggi respublika davrida Afg'oniston asosiy qonuniga binoan o'zbek tilida ta'lim olishga ruxsat berilgan.

6. Afg'onistonda tolibon hukumatiga qadar besh yuzga yaqin ommaviy axborot vositalari, jumladan, bosma nashriyotlar, radiostansiyalar, telekanallar faoliyat ko'rsatgan. Qirqqa yaqin gazeta va jurnal maxsus o'zbekcha nom bilan o'zbek tilida faoliyat yuritgan. Afg'onistonning o'zbeklar istiqomat qiladigan viloyatlarida radioeshittirishlarning to'rt dan bir qismi o'zbek tilda olib borilgani, teleko'rsatuvlarda o'zbek tilida axborot berilishi, o'zbek tili targ'ibiga qaratilgani mamlakatda o'zbek tilining matbuot tili sifatida shakllanganini asoslaydi.

7. Afg'onistonda kitobatchilik va nashriyot pashtu va fors tillarida nashr etilgan. O'zbek tilidagi kitobatchilik va nashriyot tarixi mamlakat doirasida rasmiy tarzda XX asr oxiridan boshlanadi. O'zbek tilida to'rt yuzga yaqin kitob chop etilib, mavzusiga ko'ra tartiblangani kitobatchilik jarayonining tizimli ravishda yo'lga qo'yilganini dalillaydi.

8. Afg'oniston Fanlar Akademiyasi va ta'lim vazirligidagi mualliflik va tarjima bo'limi tarkibida o'zbek tili bo'limi ochilgani til rivoji uchun imkoniyat yaratilganini ko'rsatadi. O'zbek tili va adabiyoti kafedralarining tashkil etilgani, maktablarga o'zbek tilining dars sifatida kiritilgani tilning jamiyatdagi mavqeyini ko'rsatadi. Ayniqsa, yangi Islom Respublikasi davrida o'zbek tili bo'limlarining ochilishi, matbuot, maktablar, Afg'oniston Fanlar Akademiyasi va bir qator rasmiy idora-tashkilotlar hamda muassasalarda o'zbek tili uchun bo'limlar ajratilgani bu davrning o'zbek tili taraqqiyoti uchun alohida bosqich ekanligi haqida xulosa beradi.

9. Mamlakatdagi milliy ta'lim tizimida o'zbek tilida o'qitish bilan bog'liq muammolarni o'rganish va ta'lim islohotlarini amalga oshirishda e'tiborga olish strategik ahamiyatga egadir. Afg'onistonda milliy kadr tayyorlash o'zbek tilini rivojlantirish va ommalashtirish omili sifatida amaliy ahamiyatga ega. O'zbek tilida milliy kadr tayyorlash Afg'oniston lisoniy vaziyatini e'tiborga olgan holda yondashishni talab etadi. Kadrlar salohiyati o'zbek tilining millat tili sifatidagi mavqeyini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

10. Afg'onistonda tashkil etilgan madaniy muassasalar o'zbek tilini rivojlantirish va keng yoyishda muhim vosita hisoblanadi. O'zbek tilida ish olib boradigan bilim yurtlari, maktablar, rasmiy va norasmiy tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yish, o'zbek tilida til kurslari, festivallar, simpoziumlar va tadbirlar tashkil etish tilning ijtimoiy-sotsial mavqeyini oshirishda metodologik ahamiyatga molikdir. Bunda o'zbek tilining ijtimoiy qatlamlar orasida keng yoyilishi va ommalashuvi ta'minlanadi.

11. O'zbek tili ko'p jamiyatli Afg'oniston o'lkasidagi muloqot vositalaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. O'zbek tili eng ko'p foydalaniladigan hududlarda uning muloqot vositasi sifatidagi ahamiyatini oshirish, o'zbek tilida ish yuritish tizimini

yo'lga qo'yish dastlabki vazifalardan biridir. O'zbek tilini sohalardagi ma'lumotlarni saqlash va yetkazish vositasiga aylantirish uning nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Afg'onistondagi o'zbek tili mavqeyini saqlab qolish, ko'p sonli xalq tili sifatidagi nufuzini oshirish tizimli ravishda til muhofazasini tashkil etishni taqozo qiladi.

**THE SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
DSc.27.06.2017.Fil.19.01AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE  
UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE**

---

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE**

**QUWANCH EHSANULLA**

**DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE IN AFGHANISTAN AND  
THE PROBLEMS OF ITS USE IN THE STATE SYSTEM  
(Sociolinguistic Aspect)**

**10.00.01 – Uzbek Language**

**DISSERTATION ABSTRACT  
of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences**

**Tashkent – 2025**

**The theme of the dissertation for Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number B2024.4.PhD/Fil2167.**

The PhD dissertation was completed at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navai.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) is uploaded on the website of the Scientific Council ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) and on the "Ziyonet" information and education portal ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Scientific advisor:**

**Jorakoziyev Nodirbek Imomkoziyevich**  
Doctor of Philosophy in Philology,  
Associate Professor

**Official opponents:**

**Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Muhammad Humoyun Nadim**  
Doctor of Philosophy in Philology,  
Associate Professor

**Leading organization:**

**National Pedagogical University of  
Uzbekistan named after Nizami**

The defense of the dissertation will be held on \_\_\_\_\_ 2025, at \_\_\_\_\_ at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navai (Address: 103, Yusuf Hos Hojib Str., Yakkasaroy district, Tashkent, 100100. Tel: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

The PhD dissertation is available in the Information Resource Center of Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navai (registered under №. \_\_\_\_\_). Address: 103, Yusuf Hos Hojib Str., Yakkasaroy district, Tashkent, 100100. Tel: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz).

The abstract of the dissertation was distributed on \_\_\_\_\_, 2025.

(Digital Registry note № \_\_\_\_ as of \_\_\_\_\_, 2025)

**Sh.S. Sirojiddinov**

Chairman of the Academic Council  
for Awarding Academic Degrees,  
Doctor of Philological Sciences,  
Academician

**K.U. Pardaev**

Scientific Secretary of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Philological Sciences, Professor

**S. Ashirboev**

Chairman of the Scientific Seminar under  
the Scientific Council awarding scientific  
degrees, Doctor of Philological Sciences,  
Professor

## INTRODUCTION (Abstract of PhD Dissertation)

**Relevance and necessity of the dissertation topic.** In the field of world linguistics, the relationship between language and society, the social functions of language, and its role in the communication process have been studied as scientific issues from both traditional approaches and modern paradigms. Research in sociolinguistics has analyzed the social aspects of language, including the state language, the language used for communication within a country, the national language, and the languages of ethnic groups. In socioeconomically underdeveloped countries, preserving the mother tongue, developing it, and ensuring its communicative function have become one of the main issues in research in this area.

In global linguistics, issues such as the state language, dominant language, the influence of ideology on language, interrelations between languages, the preservation and development of national languages, and the attitude towards the languages of ethnic groups have been scientifically analyzed. Attention has also been paid to the impact of a country's power and national development on the status of a language and its role in language development.

Nowadays, analyzing the degree to which national languages are used by representatives of those nations living in other regions, as well as their regional and social distinctions, is important in determining a specific language's global standing, its status among other languages, and the factors contributing to its preservation and development as a means of social communication in a multilingual environment.

After Uzbekistan gained independence, the issue of further elevating the status of the Uzbek language as the state language—and promoting its use not only within the republic but also beyond its borders—was put on the agenda. Special attention was given to celebrating the date when Uzbek was granted the status of “state language” in the embassies of Uzbekistan abroad and in language centers. The “Friends of the Uzbek Language” club was established to promote the learning and widespread use of the Uzbek language.

As President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev emphasized, “In today's era of globalization, it is natural that every nation, every independent state, prioritizes the protection and development of its national interests, and in doing so, pays special attention to preserving and advancing its culture, ancient values, and mother tongue.”<sup>90</sup> In this context, the study of the Uzbek language abroad, the efforts of our compatriots living outside the territory of Uzbekistan to preserve and cherish their mother tongue, the foundations for its development, and their aspirations to enhance its socio-political status are of practical importance when researched in a monographic direction.

This dissertation, to a certain extent, contributes to the implementation of the tasks outlined in the following normative-legal documents of the Republic of Uzbekistan: Presidential Decree No. PF-4958 dated February 16, 2017, “On Further Improvement of Postgraduate Education”; Presidential Decree No. PF-5847 dated October 8, 2019, “On Approval of the Concept for the Development of the Higher

---

<sup>90</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risi”dagi PF-5850-son farmoni.

Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030”; Presidential Decree No. PF-5850 dated October 21, 2019, “On Measures for Fundamentally Increasing the Status and Prestige of the Uzbek Language as the State Language”; Presidential Decree No. PF-6084 dated October 20, 2020, “On Measures to Further Develop the Uzbek Language and Improve Language Policy in the Country”; Presidential Decree No. PF-4797 dated May 13, 2016, “On the Establishment of the Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature Named After Alisher Navoiy”; Presidential Resolution No. PQ-289 dated June 21, 2022, “On Measures to Improve the Quality of Pedagogical Education and Further Develop the Activities of Higher Education Institutions That Train Pedagogical Personnel”; The Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis dated January 19, 2021; as well as other normative-legal documents relevant to this field of activity.

**The alignment of the research with the priority directions of the development of science and technology in the republic.** The dissertation was carried out within the framework of Priority Area I of the national development of science and technology: “Formation and implementation of a system of innovative ideas for the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information-based society and a democratic state.”

**The level of research on the issue.** In global linguistics, studies have been conducted on the relationship between language and society, the social value of language, the formation and development of languages, and the interaction between different languages. In Uzbek linguistics, the theoretical issues of sociolinguistics and the foundations of the relationship between language and society have been explored<sup>91</sup>. The linguistic situation in developed countries has been analyzed<sup>92</sup>. The history of literature in Afghanistan, the Uzbek language, and the state of the Uzbek language have been discussed in political, social, and historical books as well.

Since the development, areas of application, and the state of the Uzbek language in Afghanistan have not been specifically studied, this dissertation presents research on languages in Afghanistan, based on relevant research and legal documents. The scholars who have written scientific articles on the Uzbek language in Afghanistan include Professor Sayyid Abdulhakim Shar'iy Juzijoniy<sup>93</sup>, Doctor Sayyid Muhammad Olim Labib<sup>94</sup>, Doctor Azizullo Arol<sup>95</sup>, Muhammad Olim Ko'hkan<sup>96</sup>, Sayyid Tajiddin

---

<sup>91</sup> Usmanova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 87; Berdialiyev A., Turdibekov M. Sotsiolingvistik. – Toshkent: Nodirabegim, 2022. – B. 134.

<sup>92</sup> Dadaboyev H., Usmanova Sh. Xorijiy sotsolingvistik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 135.  
<sup>93</sup> شرعی جوزجانی، سید عبدالحکیم. 28.4-2021، عوامل عروج و نزول زبان تورکی - اوزبیکي درمحدوده افغانستان. <https://www.uzlig.com>. شرعی جوزجانی نینگ ایکینچی مقالهسی. «گوشه‌ی از تاریخ رسمی شدن زبان و فرهنگ اوزبیک و تورکمن در افغانستان». <https://www.ariaye.com>.  
<sup>94</sup> لبیب، سیدمحمد عالم، «افغانستان ده اوزبیک تیلی نینگ الفبا و املا معاماسی»، 29 میزان اوزبیک تیلی ملی کونی و مقاله لر و شعر لر توپلمی. 36-34 بیپلر.

<sup>95</sup> ارال، عزیزالله، 2020، «باش سوز»، اونوتیلیمس شعرلر و مقاله لر توپلمی. لبیب، محمد عالم و باشقلر. کابل: افغانستان، انتشارات، واژه. 9 بیپت. 2- ارال نینگ اوزبیک تیلی حقیدهگی ایکینچی مقالهسی: 2020. "اوزبیک تیلی ملی کونی (29- میزان، 21- اکتوبر)", «واژه های سیار زبان اوزبیکي»، مقاله لر و شعرلر توپلمی. لبیب، محمد عالم و باشقلر 113 بیپت، کابل: افغانستان، واژه.  
<sup>96</sup> کوهگن "ب"، محمد عالم. 2020. «افغانستان بیپتکرملریده قوللنیله دیگن اوزبیک تیلی»، 29 میزان اوزبیک تیلی ملی کونی و مقاله لر و شعر لر توپلمی. لبیب، محمد عالم و باشقله لر. 103، کابل: افغانستان، واژه.

Tashqin Bahaiy<sup>97</sup>, Muhammad Rahim Ibrahim<sup>98</sup>, Muhammad Halim Yarqin<sup>99</sup>, Professor Turdiqul Maymanagiy<sup>100</sup>, Nariman Abullayev<sup>101</sup>, Muhammad Kazim Aminiy<sup>102</sup>, and those who have supported scientific works such as Abdulhaq Rahimiy<sup>103</sup>, Muhammad Alim Erkin<sup>104</sup>, Bashir Ahmad Qardash<sup>105</sup>, Muhammad Yasin Eldash<sup>106</sup>. Additionally, the authors of books that include topics on the Uzbek language are Husayn Rizvan<sup>107</sup>, Ghulam Muhammad Ghubar<sup>108</sup>, Abdulhay Habibiy<sup>109</sup>, Ali Ahmad Kuhzad<sup>110</sup>, Haydar Ju bl<sup>111</sup>, Qanunmal Muhammad Daqiq<sup>112</sup>, Zabihullah Safa<sup>113</sup>, and Husayn Rizaiy Baghbediy<sup>114</sup>. Articles by scholars such as these have been published. In some cases, either independently or in relation to other topics, scholars have provided information about Turkic languages in Afghanistan—particularly the Uzbek language—from a sociolinguistic perspective. However, the development of the Uzbek language in Afghanistan and the issues related to its use within the state system have not been studied as the subject of a monographic research work.

